“O’zbekistonda yashil texnologiyalar”ni joriy etishga yo’naltirilgan ilmiy ishlarga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi

Joriy yil 21-iyul kuni O’zbekiston Milliy matbuot markazida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan “Yangi O’zbekistonning 2022–2026-yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”da belgilangan vazifalardan biri “O’zbekistonda yashil texnologiyalar” - Qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi texnologiyalarini joriy etish bo’yicha qilinayotgan ilmiy ishlarga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi.

Unda FA vitse-prezidenti S.Z.Mirzayev, Materialshunoslik instituti direktori O.R.Parpiyev, Fizika-texnika laboratoriya mudiri J.A.Axatov ishtirok etdi.

Ma'lumki, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi"da 24-maqsad sifatida "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish" vazifasi qo'yilgan va qator

tashkilotlarga vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, “O’zbekistonda yashil texnologiyalar” - Qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi texnologiyalarini joriy etish bo’yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, yangi ishlanmalar asosida vodorod energiyasini olish texnologiyalarini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ko’zlangan maqsadga erishishning eng samarali yo’llaridan biri, bu vodorod energetikasini rivojlantirishdir. Birinchidan, vodorod Yer yuzida eng keng tarqalgan element, ikkinchidan vodorod yonganda zararli gazlar ajrab chiqmaydi, uchinchidan vodorodni kislorod bilan reaktsiyasi natijasida ko’p miqdorda suv paydo bo’ladi.

Xalqaro ekspertlarning fikricha 2050 yilga kelib dunyoda vodorod energetikasining ulushi 18%, 2100 yilga kelib 40%dan ortiqni tashkil etadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari vodorod energetikasini rivojlantirish orqali karbonad angridi (SO2) chiqishini 95% gacha kamaytirishni maqsad qilib olishgan.

Matbuot anjumanida FA tizimida, xususan, Materialshunoslik hamda Fizika-texnika institutida mazkur yo’nalishda olib borilayotgan ilmiy ishlar haqida ma’lumot berildi. Ommaviy axborot vositalari vakillari o’zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javoblar olishdi.